

“Kapitalbank” ATB o‘ziga tegishli oddiy ovoz beruvchi aksiyalarning bir qismini qaytarib sotib olishi (xarid qilishi) to‘g‘risidagi xabarnoma

“Kapitalbank” ATB (keyingi matnda – bank) 2021-yil 24-dekabrdagi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi tomonidan bankning o‘ziga tegishli oddiy ovoz beruvchi aksiyalarining bir qismini quyidagi ahamiyatli shartlarda qaytarib sotib olish (xarid qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi haqida ma’lum qiladi:

- 1) bank tomonidan qaytarib sotib olinayotgan (xarid qilinayotgan) aksiyalarning turi - **oddiy ovoz beruvchi aksiyalar;**
- 2) bitta aksiyaning nominal qiymati – **950 so‘m;**
- 3) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish (xarid qilish) va qayta sotish qiymati - **bitim tuzilgunga qadar Bank Kuzatuv kengashining alohida qarorlari bilan belgilanadigan bozor qiymati bo‘yicha;**
- 4) bank tomonidan qaytarib sotib olinayotgan (xarid qilinayotgan) aksiyalarning umumiy soni **166 252 734 dona;**
- 5) bank tomonidan qaytarib sotib olinayotgan (xarid qilinayotgan) aksiyalarning ulushi - **bank ustav kapitalining 42 foizigacha (bu bankning ovoz beruvchi aksiyalarining 46,72 foizini tashkil qiladi);**
- 6) bank aksiyadorlarining o‘z aksiyalarini bankka sotish to‘g‘risida ariza berish muddati - **bankning o‘z aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olish (xarid qilish) to‘g‘risida ommaviy axborot vositalariga xabarnoma taqdim etilgan kundan boshlab 10 kun ichida;**
- 7) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish muddatining boshlanishi - **ommaviy axborot vositalariga bank aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olishi (xarid qilishi) to‘g‘risida xabarnoma taqdim etilgandan so‘ng 11-kundan boshlab;**
- 8) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish muddatining tugashi - **bankning o‘z aksiyalarining bir qismini qaytarib sotib olish (xarid qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 yil ichida;**
- 9) har bir bitimning qaytarib sotib olish va qayta sotish maksimal hajmi – **bankning ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak;**
- 10) to‘lov muddati va shakli – **aksiyalar uchun to‘lov uyushgan birja bozorida, birja qoidalariga muvofiq tuzilgan bitimlar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi;**
- 11) bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish (xarid qilish) tartibi – **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli ruxsati asosida belgilangan cheklovlar doirasida bir necha transhlarda amalga oshiriladi.**